SUD HUKMI ASOSLILIGINI TAMINLASHNING MUHIM TALABLARI

Pirnazarov Abdurashid Abdulxayevich
Toshkent davlat yuridek universiteti huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey direktori,
yuridik fanlari falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.21510175

Annotatsiya: Sud hukmi har bir shaxsning huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hukmning qonuniy va asosli bo‘lishi fuqarolarning adolatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirishda qonuniylik, dalillarning haqqoniyligi, isbotlash majburiyati, xolislik va odillik, sud qarorining asoslantirilganligi kabi prinsiplar muhim hisoblanadi. Maqolada shu masalalar keng tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: sud hukmi, huquqiy asoslik, jinoyat-protsessual huquq, sud amaliyoti, huquqiy tahlil, hukm asosliligini ta’minlash, qonuniylik, dalillarning haqqoniyligi, isbotlash majburiyati, xolislik va odillik.

Sud hukmi har bir shaxsning huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hukmning qonuniy va asosli bo‘lishi fuqarolarning adolatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirish uchun quyidagi talablar muhim hisoblanadi:

Hukm ishning haqiqiy holatlari unda kerakligicha to‘la va yuz berganiga haqiqatan monand tarzda aniqlangan bo‘lsa, asosli deb e’tirof etiladi.

Hukmni asoslantirish uchun jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sud majlisida o‘z tasdig‘ini topishi, dalillarga asoslanishi, ushbu dalillar esa ishga aloqadorligi, ishonchliligi va maqbulligi nuqtai nazaridan baholanishi, ishni mazmunan hal qilish uchun yetarli bo‘lishi shart (JPKning 95-moddasi).

JPKning 81-moddasiga binoan ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan yoki bermaganligi, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdor, aybsiz ekanligi va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud qonunda belgilangan tartibda aniqlashlariga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi.

Hozirgi davrga qadar jinoyat protsessiga oid adabiyotlarda dalillar tushunchasiga turlicha ta’riflar berib kelingan. Ba’zi protsessualistlar dalillar tushunchasi deganda ish holatlarini tadqiq qilish uchun qo‘llanadigan aniq faktik holatlarni nazarda tutadilar [1]. V.Ya. Doroxovning fikricha, dalillar – bu faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardir, isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar esa dalil hisoblanmaydi. Inson ongida predmetlar, narsalar emas, balki ularning obrazlari, tushunchalari va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘ladi. Haqiqiy ma’lumotlar – bu qonuniy manbalardan olingan faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardir [2]. Ma’lumotlar haqiqiy yoki soxta bo‘lishi mumkin. Haqiqiy ma’lumotlar jinoyatning ochilishiga yordam bersa, soxta ma’lumotlar bunga to‘sqinlik qiladi []3[.

Dalillarning quyidagi xususiyatlari mavjud: 1)faqat haqiqiy ma’lumotlar dalil hisoblanadi; 2) ular qonunda belgilangan manbalardan olingan bo‘lishi shart; 3) ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlarga asoslanishi lozim; 4) haqiqiy ma’lumotlar isbotlash predmetiga aloqador bo‘lishi shart.

Dalillar nazariyasi fanida haqiqiy ma’lumotlar ikki qismga bo‘linadi: 1)faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar; 2) daliliy faktlar. Faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar deganda, ishonchliligini tekshirish zarur bo‘lgan jinoyat ishi holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar

tushuniladi. Daliliy faktlar deganda esa ishonchliligi shubha tug‘dirmaydigan, tekshirilgan ma’lumotlar tushuniladi. Masalan, guvohning gumon qilinuvchini jinoyat sodir etilgan joyga yaqinroq yerda ko‘rganligi to‘g‘risidagi ko‘rsatuvi fakt to‘g‘risidagi ma’lumot bo‘lib, u albatta tekshirilishi lozim.

Dalillarning ikkinchi xususiyati – dalillar faqat belgilangan manbalardan olinishi lozimligidir. JPKning 81-moddasida belgilanganidek, bular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlardir.

Agar ma’lumotlar boshqa manbalardan olingan bo‘lsa, bu ma’lumotlar ish bo‘yicha dalil bo‘la olmaydi (masalan, ommaviy axborot vositalari, gazetalardagi ma’lumotlar yoki tezkor-qidiruv yo‘li bilan olingan ma’lumotlar). Aynan tezkor-qidiruv yo‘li bilan olingan ma’lumotlarni dalil sifatida nazarda tutish yoki tutmaslik masalasi hozirgi kunda eng munozarali masalalardan biridir [4]. Isbotlash jarayoni nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jarayon ham bo‘lganligi sababli ayrim olimlar tezkor-qidiruv faoliyatini isbotlash jarayonining bir qismi deb ta’kidlashmoqda [5]. Mazkur faoliyat qonunchiligimizda protsessual shakllantirilmaganligi sababli, ushbu masala munozarali bo‘lib qolmoqda.

Dalillar tushunchasining uchinchi belgisi - jinoyat ishi bo‘yicha ahamiyatga ega bo‘lgan haqiqiy ma’lumotlar qonun bilan belgilangan tartibda qo‘lga kiritilishi lozim. Haqiqiy ma’lumotlar qonuniy manbalardan olinib, lekin qonunda belgilangan tartibga rioya qilinmagan bo‘lsa, bu dalillarning ishonchliligiga shubha tug‘iladi. Masalan, tergovchi tintuv yoki olib qo‘yish tergov harakatlarini xolislar ishtirokisiz amalga oshirgan bo‘lsa, olingan ma’lumotlar daliliy ahamiyatga ega bo‘lmaydi (JPKning 160-moddasi). Shuningdek, so‘roq qilish davomida ishora qiluvchi savollar berilishi (JPKning 102-moddasi), so‘roqning davom etish vaqtiga rioya qilmaslik (JPKning 107-moddasi) hamda zo‘rlash, qo‘rqitish va g‘ayriqonuniy choralarni qo‘llash orqali ko‘rsatuvlar olishga harakat qilish (JPKning 22-moddasi) ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Dalillarning to‘rtinchi xususiyati – haqiqiy ma’lumotlar isbotlash predmetiga aloqador bo‘lishi lozim. Shuning uchun bu xususiyat jinoyat protsessi qonunchiligida dalillarning aloqadorligi degan nom olgan. Aloqadorlik dalillarning mazmunini ifodalaydi. “Aloqadorlik – dalillarning yuridik xususiyatini emas, balki ob’ektiv xususiyati tashkil qiladi. Huquqiy normalar emas, balki ob’ektiv xususiyat dalillarning ishga aloqadorligini belgilaydi” [6]. Aniqlanayotgan dalillar ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holda bu dalillar ishga aloqador hisoblanadi. Ushbu yondashuv tergov ishini yuritishga yanada aniqlik kiritadi.

Dalillarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: a) dalillar abstrakt emas, aniq daliliy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Olingan ma’lumotlar: nima? qaerda? qachon? qanday sodir bo‘lgan? - kabi savollarga javob berishi kerak; b)dalillar albatta maqbul bo‘lishi lozim.

Dalillarning faqat qonuniy manbalardan olinishiga katta e’tibor berish lozim, aks holda olingan ma’lumotlar dalil sifatida tan olinmaydi. Mishmishlar, taxminlar, voqelikka to‘g‘ri keladigan xayollar, fikrlar, garchi ular ma’lumot sifatida guvohdan, ekspertdan olingan bo‘lsa-da, protsessual qayd etilganligiga qaramasdan dalil sifatida tan olinmaydi. Negaki ular voqelikka to‘g‘ri kelsa ham, farazli ta’rifga ega bo‘lib, biron-bir ob’ektiv holat, ashyoviy dalil bilan tasdiqlanmaydi.

Dalil jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e’tirof etiladi. Sudning vazifasi jinoyat ishini uning mazmuniga daxldor bo‘lmagan material va faktlar bilan ko‘paytirish emas, balki faqat xolisona haqiqatni aniqlashga, ishni to‘g‘ri hal qilishga bevosita ahamiyatli

bo‘lganlarini tadqiq etishdan iboratdir. Shuning uchun hukm chiqarish vaqtida dalillarga baho berishda sud birinchi navbatda ularning ishga aloqadorligini aniqlashi lozim.

Aloqadorlik - bu dalilning o‘z mazmuni bilan ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash vositasi sifatida xizmat qila olishi, ya’ni ularning mazmun jihatidan yaroqliligidir. Dalillar mazmuniga quyidagi ma’lumotlarni kiritish mumkin:

1) isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar (masalan, JPKning 82-moddasidagi ayblash va hukm qilish uchun asoslardan biri);

2) daliliy fakt ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa holatlar, ya’ni isbot qilishda argument sifatidagi ma’lumotlar;

3) boshqa dalillar to‘g‘risida – ularning mavjudligi, maqbulligi, ishonchliligi (JPKning 95-moddasi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Dalillarning ishga aloqadorligi xususiyati ularning jinoyat ishi bo‘yicha tadqiq etilayotgan holatlar bilan ob’ektiv bog‘liqligidan iboratdir. Mazkur bog‘liqlik jinoyat ishini yuritish boshlanganida o‘tgan zamonda bo‘lib, isbotlashning vazifasi ularni tiklash, qayta yaratishdan iboratdir. Bevosita moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar haqidagi ma’lumotlarning ishga aloqadorligi hamma vaqt ayon, shu sabali masalaning bu qismini hal etilishi qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Dastlabki tergov organi turli voqealar haqida olingan ma’lumotlarni, moddiy izlar va ishga taalluqli boshqa isbotlovchi faktlarning sodir etilgan jinoyatga jiddiy aloqasi borligi va ish bo‘yicha mazmunli fakt va holatlar haqida muayyan axborot bo‘lishi ehtimol tutilsa, ularni ishga aloqador deb e’tirof etishi kerak. Isbotlash jarayonining kelgusi bosqichlarida bunday aloqalar mavjudligi masalasi ishonchli tarzda aniqlanadi. Dalil va ishning moddiy-huquqiy holatlari o‘rtasida aloqa mavjudligi xolisona tasdiqlangan hollarda, bu haqiqiy ma’lumotlar ishga aloqador deb e’tirof etilib, mohiyatiga ko‘ra baholanadi hamda ish bo‘yicha chiqariladigan protsessual xulosa va qarorlarning, jumladan hukmning asosini tashkil etadi.

Dalillarning ishga aloqadorligining mohiyati isbotlashning ishni hal qilish uchun jiddiy holatlar doirasi bilan cheklanganidadir. Jinoyat-protsessual qonun bu masalani hal qilish uchun asos yaratib, umumiy ko‘rinishda jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlash predmetini belgilaydi.

Birinchi navbatda ishga taalluqli bo‘lgan barcha dalillar doirasidan tergov qilinayotgan hodisaning mavjudligini, uni sodir etishda ayblanuvchining aybdorligi yoki aybsizligini ko‘rsatadigan haqiqiy ma’lumotlarni ajratish lozim. Mazkur dalillar shaxs tomonidan muayyan harakatlar qasddan, ehtiyotsizlik tufayli yoki tasodifan sodir etilganligi to‘g‘risida jinoyat-protsessual isbotlashning asosiy masalasi - harakatlar jinoiy xususiyatga egaligi haqidagi savolga javob topish imkonini beradi. Aloqadorlik orqali shaxsning javobgarlik darajasi va xususiyatiga ta’sir etuvchi qator holatlarning mazmuni jinoyat-protsessual me’yorlar orqali ochib beriladi.

Maqbullik – tegishli axborotlarni olish usullari, metodlari, manbalarining qonuniyligi nuqtai nazaridan dalillarning yaroqliligidir [7] Dalillar belgilangan tartibda to‘planib, JPKning 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lsa, ular maqbul deb e’tirof etiladi. Maqbul deb topish uchun dalillar quyidagi talablarga javob berishi shart:

1) manbaning qonuniyligi (JPKning 81-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan manbalar);

2) dalilni olish usulining qonuniyligi (JPKning 87-moddasida belgilangan usullar);

3) protsessual rasmiylashtirilishining qonunga muvofiqligi; 4) dalillarni to‘plash tergov va sud harakatlarini o‘tkazishga vakolatli bo‘lgan sub’ekt tomonidan amalga oshirilishi (JPKning 86-moddasi).

Maqbullik - bu tegishli axborotni olish manbalari, metodlari va usullarining qonuniyligi nuqtai nazaridan dalillarning yaroqliligi hisoblanadi [8]. Bu tushunchaga aniqlik kiritadigan

bo‘lsak, maqbullik dalillarning faktik ma’lumotlar manbalari, shuningdek ularni olish va mustahkamlash usullarining qonuniyligi orqali tavsiflanadigan xususiyatidir [9].

Sud dalillarni o‘z tashabbusiga ko‘ra nomaqbul deb topishi mumkin. Nomaqbul deb topilgan dalillar ayblov yo‘sinidagi har qanday hujjat tarkibiga kiritilishi mumkin emas [10].

Ishonchli dalil deganda, haqqoniyligi shubha tug‘dirmaydigan dalillar tushuniladi. To‘g‘ri protsessual qaror chiqarishning eng muhim sharti ishonchli dalillarning mavjudligidir. Dalil mazmunining haqiqiyligi, undagi ma’lumotlarning voqelikka muvofiqligi, uning to‘liq, so‘zsiz ishonchga egaligi e’tirof etilgan taqdirda, u ishonchli hisoblanadi. Dalilning ishonchliligi dastlabki tergov va sudda uni sinchkovlik bilan tekshirish orqali aniqlanadi. Dalillar ishonchliligini aniqlashga bilish nazariyasi, predmetning barcha xususiyatlarini to‘la. har tomonlama va xolisona o‘rganish usuli orqali erishiladi.

Dalilning ishonchliligini aniqlash uchun uning tashqi alomatlari, har bir muayyan holatdagi mohiyati, eng muhim va jiddiy xususiyatlari va ish uchun ahamiyatini chuqur o‘rganish zarur [11].

Dalilning ishonchliligini haqiqiy ma’lumotlar manbai bilan dalilni shakllantirish bosqichlarining bir vaqtda, sinchkovlik bilan har tomonlama o‘rganish natijasida aniqlash mumkin (masalan, so‘roq qilingan shaxsning axborotni qabul qilish, eslab qolish, qayta aks ettirishga qodirligi, guvohning ayblanuvchi va jabrlanuvchi bilan o‘zaro munosabatlari, moddiy izlar paydo bo‘lishi va saqlanishi sharoitlari va hokazo). Dalilning ishonchliligi haqidagi yakuniy qaror uning mazmunini boshqa protsessual manbalardan olingan axborotlar bilan solishtirish orqali qabul qilinadi [12].

Dalillarga baho berish va ularning ishonchliligini aniqlash jarayonining muhim tarkibiy qismi haqiqiy ma’lumot manbalarini sifat jihatidan baholashdir [13]. Protsessual manbalarni baholash tergov va sud organlarining jinoyat hodisasiga taalluqli holatlarni isbotlash faoliyatida muhim ahamiyatga ega, chunki ish bo‘yicha isbotlash predmetini tashkil qiladigan barcha faktlar, holatlar qonunda nazarda tutilgan ana shu manbalar yordamida aniqlanadi. Ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qaysidir faktni aniqlash uchun avvalo haqiqiy ma’lumotlar manbai tadqiq etilishi va to‘g‘ri baholanishi lozim bo‘lib, uning sifatiga, izlanayotgan fakt haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligiga, unda noto‘g‘ri, xolisona bo‘lmagan, xato yoki yolg‘on ma’lumotlar yo‘qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Biroq, protsessual manbaning sifatli ekanligi undan olingan fakt to‘g‘risidagi ma’lumotlarning doimo ishonchli bo‘lishini anglatmaydi. Bu ma’lumotlar jinoyat sodir etilishining haqiqiy holatlariga to‘g‘ri kelishi yoki nomuvofiq bo‘lishi mumkin (masalan, guvoh ish bo‘yicha unga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida haqiqatni so‘zlab berganda xato qilishi, yanglishishi, u yoki bu muhim jihatlarni noaniq aytishi ehtimoldan holi emas). Demak, fakt to‘g‘risida dalillar manbaidagi ma’lumotlar ishonchliligini aniqlash uchun ularni sinchkovlik bilan o‘rganish, haqiqiy mazmunini tahlil qilish, boshqa dalillar bilan solishtirish, o‘zaro bog‘liqligini va bir-biriga mosligini aniqlash, bir-biriga mos kelmagan taqdirda, mavjud ziddiyatlarning sababini aniqlash kerak. Protsessual manbaning faqat shunday baholanishi tergov va sud organlariga isbotlanayotgan fakt to‘g‘risida olingan ma’lumotlarning ishonchliligi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Isbotlanishi kerak bo‘lgan barcha va har bir holatning haqiqiyligini so‘zsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar to‘plangan bo‘lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun ye*tarli* deb hisoblanadi (JPK 95-moddasi. 5-qismi). Dalillarning yetarliligi deb, dalillar jamlanmasi asosida ishonchga sazovor xulosa chiqarish mumkin bo‘lishi va ish bo‘yicha haqiqatga mos keladigan qaror chiqarilishiga aytiladi [14].

Ish bo‘yicha protsessual qaror qabul qilish uchun dalillar yetarliligini belgilash dalillarni baholashning mustaqil vazifasidir. Ish bo‘yicha to‘plangan dalillar o‘z mazmuniga ko‘ra ishga aloqador, maqbul va ishonchli bo‘lishi bilan birga isbotlash jarayoni bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Ba’zi hollarda dalillar

isbotlash predmetiga kiradigan ayrim holatlarga nisbatan yetarli, boshqa qidirilayotgan faktlarning mavjudligi ishonchli bo‘lishi uchun esa yetarli bo‘lmaydi.

Dalillarning yetarliligi tushunchasi ish bo‘yicha to‘plangan dalillar yig‘indisini nazarda tutadi. Dalillar yig‘indisi deganda hodisalar va faktlarning haqiqiy bog‘liqligini to‘g‘ri aks ettiradigan, o‘zaro kelishgan va ichki bog‘langan dalillar tizimi tushuniladi. Isbotlanishi kerak bo‘lgan barcha va har bir holatning haqiqiyligini so‘zsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar to‘plangan bo‘lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun yetarli deb hisoblanadi.

Dalillar yig‘indisini baholash haqiqiy ma’lumotlarning ishonchliligini va isbotlovchi ahamiyatini ularni bir-biri bilan solishtirish yo‘li bilan aniqlashga yordam beradi. Dalillar yig‘indisini baholash dalillardagi to‘liqsizlik, noaniqlik va ziddiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Agar sud “ayblov isbotland” degan xulosaga kelsa, uning jinoyatning malakalanishi, jazo tayinlash yoki undan ozod qilish, moddiy ziyonni qoplash to‘g‘risidagi qarorlari ham asoslantirilishi lozim. Sudning aniqlangan faktlarning huquqiy bahosi to‘g‘risidagi xulosalari, shuningdek jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya va jazo masalalari moddiy qonunni mantiqiy-huquqiy tahlili orqali asoslantirilishi kerak.

Sudning har qanday xulosalari asoslantirilmagan holda hukm asoslantirilmagan hisoblanadi. Aybsiz shaxsni javobgarlikka tortgan yoki ayblovni tasdiqlovchi yetarli dalillar mavjudligida chiqarilgan oqlov hukmlari ham asosli emasdir.

Hukmlarning qonuniyligi va asosliligi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Sh.X.Inomjonovning ta’biri bilan aytganda, “…isbot qilish qanchalik to‘la va mahorat bilan amalga oshirilsa, ish bo‘yicha chiqariladigan hukm va boshqa qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi shunchalik ta’minlangan bo‘ladi.” [15]

Asoslanmagan hukm bir vaqtning o‘zida noqonuniy ham hisoblanadi, chunki qonun faqat asoslantirilgan hukmlar chiqarishni talab etadi.

Asosli hukmlar chiqarishda JPKning 23-moddasidagi aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozimligi ham e’tiborga olinadi. Qonun qo‘llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, hukmlarning asosliligi unga qo‘yilgan asosiy talablardan biri bo‘lib, u dalillarni yetarlilik, ishga aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik jihatdan baholashdek murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi. Sud hukmi har bir shaxsning huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hukmning qonuniy va asosli bo‘lishi fuqarolarning adolatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirish uchun quyidagi talablar muhim hisoblanadi:

1. Qonuniylik prinsipi: Sud hukmi faqat amaldagi qonunlarga muvofiq chiqarilishi kerak. Sudya qaror chiqarishda qonunchilik me’yorlarini to‘liq va to‘g‘ri qo‘llashi lozim.

2. Dalillarning haqqoniyligi: Sud jarayonida keltirilgan dalillar haqqoniy va asosli bo‘lishi shart. Sud qarorining ishonchliligi to‘plangan dalillarning aniqligi va qonuniyligiga bog‘liq.

3. Isbotlash majburiyati: Ishni ko‘rib chiqishda taraflarning dalillari sinchkovlik bilan o‘rganilib, har bir fakt tasdiqlanishi kerak. Shubha tug‘diradigan holatlarda sud adolatli qarorga kelishi lozim.

4. Xolislik va odillik: Sudya o‘z qarorida taraflarning teng huquqliligini ta'minlashi va har qanday ta'sirdan holi bo‘lishi zarur.

5. Sud qarorining asoslantirilganligi: Hukmda barcha dalillar, qo‘llangan qonuniy asoslar va xulosalar aniq va batafsil bayon etilishi kerak.

Mazkur talablar sud-huquq tizimining samaradorligi va adolatni ta’minlashda asosiy omillardan biridir. Adolatli sud qarorlari jamiyatning qonunga hurmatini oshiradi va huquqiy davlatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Фаткуллин Ф.Н. Общие проблемы доказывания. –Казань: Казанский университет, 1976. –Б. 93; Лупинская П.А. Уголовный процесс. / Под общей ред. П.А.Лупинской. –М.: 1995. –Б. 142.
2. Дорохов В.Я. Теория доказательств в уголовном процессе. / Под ред. Н.В.Жогина. -М.: 1973. -Б. 224.
3. Иванов И.С. Уголовная ответственность за фальсификацию доказательств по уголовному делу: Автореф. дисс.... канд. юрид. наук. –Волгоград: 2005. –Б.14.
4. Қаранг: Безлепкин Б.Т. Проблемы уголовно-процессуального доказывания. // Государство и право. -1991. -№8. –Б. 98-105;
5. Смородинова А., Зайцева С., Громов Н. Соотношение доказательств и фактов в уголовном процессе.// Росийская юстиция. -1998. -№8. –Б. 25;
6. Иномжонов Ш. Жиноят процессида далиллар тақдим қилиш ва фойдаланиш муаммолари. –Т.: Адолат, 2003. –Б.33.
7. Бризницкий А., Зажицкий В. Относимость и достоверность доказательств в уголовном судопроизводстве. // Юстиция .-1982. -№3. –Б. 6-7.
8. Сильнов М.А. Вопросы обеспечения допустимости доказательств в уголовном процессе (досудебные стадии). - М.: МЗ-Пресс, 2001. – Б.112.
9. Сильнов М.А. Некоторые вопросы обеспечения следователем допустимости доказательственной информации при допросе // Правовед: Межвуз. научно-метод. сборн. - Вып. 1 – Новгород: НовГУ им. Ярослава Мудрого, 1998. - Б. 114-117.
10. Кипнис Н.М. Допустимость доказательств в уголовном судопроизводстве. - М.: 1995.- Б. 27.
11. Костенко Р.В. Порядок решения конституционного требования допустимости доказательств в ходе уголовного судопроизводства. // Российский судья. -2004. -№9. –Б.18-20.
12. Гришина Е.П. Достоверность доказательств и способы ее обеспечения в уголовном процессе: Автореф. дисс...канд. юрид. наук.- М.: 1996.- Б.18.
13. Мандрик Л.И. Процессуальные и криминалистические аспекты получения образцов для сравнительного исследования: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Минск: БГУ, 1991. - 17 б.
14. Снегирев Е.А. Оценка доказательств по внутреннему убеждению: Автореф. дисс…. канд. юрид. наук. –Воронеж: ВГУ, 2002. –Б.10.
15. Зинатуллин З.З. Вероятное и достоверное в процессуальных решениях следователя // Проблемы доказывания по уголовным делам. Межвузовский сборник научных трудов. –Красноярск: 1988. -Б. 11-12; Азизходжаев Б.А. Оценка доказательств в уголовном процессе. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б. 21-32.
16. Иномжонов Ш. Жиноят процессида далиллар тақдим қилиш ва фойдаланиш муаммолари. -Т.: Адолат, 2003. –Б.11.